

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иктисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2023-3/4

Вестник Хорезмской академии Маъмуна

Издается с 2006 года

Хива-2023

Бош муҳаррир:*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир хайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаева Муборак Махмусовна, б.ф.д., проф.</i>	<i>Рахимов Рахим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович,</i>	<i>Рахимов Матназар Шомуротович, б.ф.д.,</i>
<i>т.ф.д., проф.</i>	<i>проф.</i>
<i>Азимова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Аметов Якуб Идрисович, д.б.н., проф.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Бабаджанов Хушнуд, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машиариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Сафаров Алишер Каримджанович, б.ф.д., доц.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Сотитов Гойипназар, қ/х.ф.д., проф.</i>
<i>Дурдиева Гаёҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Тожибаев Комильжон Шаробитдинович,</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тулаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>б.ф.д., академик</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Жуманов Мурат Арепбаевич, д.б.н., проф.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Кадинова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Чупонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Каримов Улуғбек Темирбаевич, DSc</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Курбанова Саида Бекчановна, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Қутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>
<i>Ламерс Жон, қ/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ўразбоев Ғайрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Махмудов Рауфжон Баходирович, ф.ф.д., к.и.х.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекпўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Мирзаева Гулнара Саидарифовна, б.ф.д.</i>	<i>Худайбергана Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д.</i>

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№3/4 (99), Хоразм Маъмун академияси, 2023 й. – 238 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтакавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

© Хоразм Маъмун академияси ноширлик бўлими, 2023

Saydakhmatova H.I. Zamonaviy kognitiv lingvistikada kontsept tushunchasi va unga aloqador hodisalar	115
Sobirova M.J. Terminologik tezauruslar dolzarbligi va ularning lingvistik ontologiya uchun ahamiyati	118
Sultanova D., Rajabboyeva F. Problems of translating phraseological units from uzbek to English	120
To'yboyeva Sh.R. Ajratilgan bo'lakli gaplarda binar konstruksiyaning ifodalanishi	123
Umarova Z. X. Lingocultural peculiarities of terms related to tourism	126
Xajieva D.A. Zamonaviy o'zbek she'riyati va folklor munosabati xususida	128
Xakimbayeva O.K. Ayol va erkaklarning ijtimoiy va fiziologik xususiyatlarini aks ettiruvchi konseptual qatlamlar	131
Xalilova D.J. O'zbek detektiv nasrida jinoyat va jazo muammosi hamda syujet sxemasi	133
Xamidova M., Abdulloyeva N. O'zbek rus va fransuz tillarida "minnatdorchilik" kategoriyasi	138
Xamidova S.N. Kognitivlik va uning lisoniy kategoriyalarda ifodalanishi	141
Xasanova G.Sh. Alisher Ibodinov qissalarida davr va qahramon masalasi	143
Xodjayeva D.I., Bozorova M.A. Noverbal muloqot va uning tamoyillari	146
Xo'jaeva G.S. Lingvistik atamalar va lingvistik lug'atlar tahlili	149
Алланазарова С.Х. Ономастикада атокли отларни ўрганишнинг асосий терминологияси	151
Аширматова М.Ж., Бурхонова Г.М. Қишлоқ хўжалиги терминларининг ўзбек ва рус тилларида тезаурусини яратишни такомиллаштириш	153
Бердимуратова Л.Д. Кизилкум худудидаги гидронимлар	156
Бухарова М.Х. Тил ижтимоий функциясининг илмий асоси	159
Гулматова М. Монография жанри илмий алоқа воситаси сифатида	161
Даниева М.Дж. Лугавий бирликлар ўртасида семантик мослашув масалалари	163
Джаббарова М.Г. Фразеологический пласт и область его изучения	166
Жаббарова Ю.Х. Лингвотрадиционалистический концепт тушунчаси	168
Жомардова Д.Қ. Тиббиёт реклама матнларида апеллятив лексика	170
Жумаев Р.Х. Садриддин Айний асарларида туркий-ўзбекча қатламга мансуб топонимлар	173
Жумаева Ш.Ш. Ойбекнинг "Навой" асарида реалиялар ва уларнинг инглизча таржимада берилиши	176
Ибратов Б.Б. Оламнинг ономастик манзарасида исм-шарифларнинг ўрганилиши	179
Икромов Н. Психоллингвистика как раздел науки переводоведение	181
Казак И.Р. Фразеологияда миллий-маданий хусусиятлар ифодаси	185
Қулмаматов О.А. Аскияда кулги уйғотувчи воситалар	190
Матқулueva М.Ф. "Шахриёр" достони сюжетининг шаклланишида тотемистик тасаввурлар ва мифларнинг таъсири	194
Попов Д.В. Проблемы ментальности и ее отражение в языке	197
Ражабова Д. Инглиз адабиётида тарихий роман генезиси	200
Расулов З.И., Акрамова М.Б. Речевая компрессия в синхронном переводе	203
Раунова М.Н. Таржима трансформациялари	206
Рузиева Н.З. Эвфемизм ва фразеологизмлар муносабати	213
Рузимбаев Х.С. Экзотическая лексика в романе Ю.Домбровского «Факультет ненужных вещей»	216
Салаева Г.Г. Айрим инглизча ўзлашмалар хақида	218
Сафаров Ф. Ўзбек адабий тили қурилишининг бош хусусияти	220
Чоракулова Д.З. Ойконимия ва унинг хусусиятлари	223
Шарипова М.К. Роль и место СМИ в кодификации аббревиатур	227
Эльманова М.Т. Проблемы социальной мобильности в романах Джойс Кэрл Оутс	231
Эрназарова Н.Х. Инглиз тилида нутқ турлари	233

problem of the most adequate translation of phraseologism still remains unresolved and requires a deep and comprehensive analysis. This article is mainly of a theoretical nature and is the first stage in the study of the translation of phraseological units from English into Uzbek on various materials.

REFERENCES:

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка / А.В. Кунин. М.: Высшая школа, 1986. 336 с.
2. Bally, Ch. *Precis de stylistique*. - Geneve, 1905.-320 p.
3. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Языки русской культуры, 1996. – 11 с.
4. Шанский Н.М. Фразеология современного русского языка. – СПб.: Специальная литература, 1996. – 15 с.
5. Смит, Л. П. Фразеология английского языка. – М.: Дрофа, 1998. – 158 с; Bally, Ch. *Precis de stylistique*. - Geneve, 1905.-320 p.
6. Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – 198 с.
7. Виноградов В.В. Избранные труды. Лексикология и лексикография. – М.: Наука, 1977. – 198 с.
8. ЛЭС – Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Советская энциклопедия, 1990. – 688 с.
9. Рещер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода. – М.: Р. Валент, 2004. – 145 с.
10. Федоров А.В. Основы общей теории перевода (лингвистические проблемы). – М.: Филология три, 2002. – 306 с.
11. Рещер Я.И. Теория перевода и переводческая практика. Очерки лингвистической теории перевода. – М.: Р. Валент, 2004. – 112 с.
12. Дмитриева Л.Ф. и др. Английский для студентов. Курс перевода / Л.Ф. Дмитриева, Н.Ф. Смирнова, Е.А. Мартинкевич, С.Е. Кунцевич. – Ростов-на-Дону: МарТ, 2005. – 300 с.
13. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). Современное переводоведение. – М.: Высшая школа, 2001. – 176 с.
14. Дмитриева Л.Ф. и др. Английский для студентов. Курс перевода / Л.Ф. Дмитриева, Н.Ф. Смирнова, Е.А. Мартинкевич, С.Е. Кунцевич. – Ростов-на-Дону: МарТ, 2005. – 189 с.
15. Дмитриева Л.Ф. и др. Английский для студентов. Курс перевода / Л.Ф. Дмитриева, Н.Ф. Смирнова, Е.А. Мартинкевич, С.Е. Кунцевич. – Ростов-на-Дону: МарТ, 2005. – 300 с.
16. Кодирий А. Мехробдан чаён. Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994, 5 б.
17. Qodiriy, A. *The Scorpion from the Altar: Novel*. Translators: I.M. Tukhtasinov, U.R. Yoldoshev, A.A. Khamidov. - T.: «MASHHUR-PRESS», 2019. - 12 p.
18. Кодирий А. Мехробдан чаён. Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1994, 29 б.
19. Qodiriy, A. *The Scorpion from the Altar: Novel*. Translators: I.M. Tukhtasinov, U.R. Yoldoshev, A.A. Khamidov. - T.: «MASHHUR-PRESS», 2019. – 55-56 p.

UO'K 808.3

AJRATILGAN BO'LAKLI GAPLARDA BINAR KONSTRUKSIYANING IFODALANISHI *Sh.R.To'yboeva, o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

Annotatsiya. O'zbek tilidagi singari fransuz tilida ham gap bo'laklarini mantiqiy ajratish usullari mavjud bo'lib u "Mise en relief" deb ataladi. Bu grammatik hodisa bevosita fransuz tilining jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada avvalo o'zbek tilidagi ajratilgan bo'laklarda binar qurilmaning ifodalanishiga to'xtalishni joiz topdik.

Kalit so'zlar: ajratilgan bo'lak, semantik-funksional, intonasiya, predikativ birlik, izohlovchi, binar.

Аннотация. Как и в узбекском языке, во французском языке также имеются приемы логического разделения, называемые «Mise en relief». Это грамматическое явление напрямую увеличивает привлекательность французского языка. В данной статье, прежде всего, мы сочли допустимым остановиться на репрезентации бинарного устройства в обособленных частях узбекского языка.

Ключевые слова: отделяемая часть, семантико-функциональная, интонация, предикативная единица, объяснительная, бинарность.

Abstract. As in the Uzbek language, in the French language there are also logical separation techniques called "misanelie". This grammatical phenomenon directly increases the appeal of the French language. In this article, first of all, we considered it acceptable to dwell on the representation of a binary device in separate parts of the Uzbek language.

Key words: separable part, semantic-functional, intonation, predicative unit, explanatory, binarity.

Biz binar konstruksiyalari gaplar haqida fikr yuritar ekanmiz, ularning ajratilgan bo'lakli gaplarda qo'llanilishiga ham alohida to'xtalib o'tishimiz darkor. Bizga ma'lumki, murakkab gap sintaksisida sodda gap tarkibida kelib, ularni murakkab gaplarga aylantiruvchi sintaktik konstruksiyalardan biri sifatida gapning ajratilgan bo'laklari ko'rsatiladi. Ularda mazmunan ma'lum maqsad ifodalanadi; ma'lum darajada predikativlik, hukm anglashiladi. Biror gap bo'lagini ajratishda "so'z tartibi, ajratilgan bo'lakning hajmi, o'ziga xos intonatsiyasi, pauza, so'z aloqasining xarakteri" kabi belgilar e'tiborga olinadi.

O'ziga xos semantik funksiyaga ega bo'lgan ajratilgan bo'lakning o'ziga xos xususiyat shundan iboratki, urg'u berish orqali ma'lum bo'lakning ma'nosi ajratib, bo'rttirib ko'rsatiladi, boshqa gap bo'laklaridan alohidalab, e'tiborni shu bo'lakka qaratadi. Ushbu mantiqiy ajratish ohangda ham ko'rinadi, ya'ni boshqa gap bo'laklaridan farqlanib turadigan intonatsiya orqali talaffuz etiladi. Bundan tashqari, ajratilgan bo'laklar orqali boshqa qo'shimcha ma'nolar ham ifodalanadi. Aynan modal munosabatlar ajratilgan bo'lak orqali sabab va ta'kid ma'no o'ttenkalarini ifodalaydi. Shu kabi qo'shimcha ma'no munosabatlarining ifodalanishiga asos shuki, ajratilgan bo'lak faqat o'zi aniqlab keladigan bo'lak bilan aloqaga kirishibgina qolmay, aniqlanmish bilan o'zaro muomalaga kirishayotgan bo'lak bilan ham, gapning umumiy ma'nosi bilan ham o'zaro muomalaga kirishadi. Ammo bu ikki taraflama muomalaning biri ham semantik, ham grammatik bo'lib, ikkinchi xil munosabat esa faqat semantikdir.

Barcha sodda gaplar singari ajratilgan bo'laklarning ham o'z mustaqil, mantiqiy urg'usi bor, u boshqa gap bo'laklaridan ohang bilan ajralib turadi, o'ziga xos intonatsiyasiga ega bo'ladi. Uning intonatsiyasi boshqa gap bo'laklarining intonatsiyasidan farqlanib turadi, ya'ni ajratilgan bo'lak alohida (baland-past) intonatsiya bilan talaffuz etiladi. An'anaviy tarzda, ajratilgan bo'lakdan oldin kelgan, izoh berilayotgan so'zda ohang baland ifodalanadi, ajratilgan bo'lakda esa ohang biroz past yoki odatdan istisno tarzda baland bo'ladi:

O'zingiz o'ylab ko'ring: shu mantiqqa to'g'ri keladimi...

Ajratilgan bo'laklar o'ziga xos bo'lgan xususiyatlar bilan, bir tomondan, oddiy gap bo'laklaridan farqlansa, boshqa tarafdan, ular to'liqsiz, ergash gaplardan ajralib turadi. Ular mazmun va ohangdagi ajralib turishlilik bilan murakkab bir fikrni ifodalaydi: *Tug'ilgan kun munosabati bilan taklif qilingan mehmonlar, ya'ni, "chaqaloq" ning ota-onasi, ikki akasi bilan tog'asi, stulda to'g'ri o'tirishni bilmaydigan amakisi oldida oilaning shaxsiy muammolari hikoya qilinadi...*

Ammo murakkab fikrni ifodalovchi bu gap qo'shma gap bo'la olmaydi, chunki tarkibida faqat bitta predikativ birlik mavjud. Shu bilan birga, bu xil gap konstruksiyasi sodda gap ham bo'lmaydi. Chunki tarkibida asosiy predikativ birlikdan tashqari, yarim predikativlik mazmuni bo'lgan ajratilgan gap bo'lagi bor. Shuning uchun ajratilgan aniqlovchi yoki ajratilgan izohlovchi ishtirok etgan gap konstruksiyalarini sodda gap bilan qo'shma gap orasida turuvchi murakkab gaplar deb ajratish zarur bo'ladi. Gapning ajratilgan bo'laklari muhim stilistik vositalardan biridir. Murakkab fikrni sodda, ixcham va ta'sirli ifodalash usullaridan biri ajratilgan bo'laklardan foydalanishdir. Shuning uchun ham ajratilgan bo'laklar masalasi grammatika bilangina emas, stilistika, intonatsiya, punktuatsiya masalalari bilan ham bog'lanadi. Ajratilgan bo'laklar o'zining grammatik semantik, funksional xususiyatiga ko'ra, sintaksisning maxsus sohasi murakkab gap sintaksisining o'rganish obyektidir. Ajratilgan bo'laklar tilda qadimdan qo'llanilib kelinadi; bu grammatik kategoriya o'zining tarixiy evolyutsion taraqqiyot yo'lga ega. Ajratilgan bo'laklarning ravishdoshli konstruksiyalarining, ko'makchi konstruksiyalarining ko'p turlarini, ajratilgan aniqlovchilarni deyarli hamma va har qanday yozma yodgorlik tilida uchratish mumkin. Ajratilgan bo'laklarning adabiyotda qo'llanilishi ham faoldir. Buning sababi o'zbek yozma tilining xalq tiliga yaqinlashib, yanada takomillashishidir.

Ajratilgan bo'laklar qaysi gap bo'lagiga oidligiga qarab, uning ma'nosini izohlab, aniqlashtirib, bo'rttirib keladi va shunga ko'ra, badiiy asarlarda ko'p qo'llanadi: *Yo'ldoshboyning tug'ilgan kuni munosabati bilan chorlangan mehmonlar, ya'ni, "aybdor" ning padari buzrukvari-yu volidai muhtaramasi, tag'in ikkita feldsher bilan Yo'ldosh o'qiydigan sinf rahbari va biz jujuqlar –*

he, stulda to'g'ri o'tirishni bilmaydigan, ayrimining oyog'i yerga tegmay tagiga qatlab olgan qishloq shumtakalari oldida burgutning ilk bor uzun ipda uchirilgani hikoya qilinadi. (Sh.Xolmirzayev. Bandi burgut)

Odatda, badiiy asarlarda gapning ikkinchi darajali bo'laklari ajratiladi. Ajratilgan aniqlovchilar predmetning belgisini qayta aniqlash, bo'rttirish, boshqa bir aniqlovchining ma'nosini izohlash, aniqlashtirish maqsadida qo'llanadi. Masalan: *Xuddi tirikday! Ko'zlari...* (Bandi burgut)

Yoki, Yo'ldoshboy bilan do'stligimiz boshlangan kunlar edi. U meni saroylariga ergashtirib borib, bir echkini ko'rsatdi. Qip-qizil. (Bandi burgut)

Ajratilgan izohlovchilar. Ajratilgan izohlovchilar. Odatda, egaga (ba'zan undalmaga) oid bo'lib, uning ma'nosini aniqlashtiradi, izohlaydi, izohlovchi ajratilganda, izohlanmish qanday mavqeda bo'lsa, u ham shunday mavqega ega bo'ladi. Ajratilgan izohlovchilar izohlanmishdan keyin keladi va undan maxsus pauza bilan ajratiladi. Ayrim o'rinlarda "ma'nosi ochiq ifodalangan so'zlarning ma'nosini ochiqroq ifodalash" ajratilgan izohlovchiga yuklatiladi:

Ular rais boboning uyi tepasiga yetgach, sekinlab aylanishga tushdilar. Ular balandda. Tutqin – oyog'ida kapron zanjiri bor burgut esa pastda...(Bandi burgut)

Ajratilgan to'ldiruvchilar o'zidan oldin kelgan to'ldiruvchining ma'nosini aniqlashtiradi: *Bu kishining ana shu zerikarli nigohi menga yoqmas, aytish mumkinki, bu shaxsan mendan boshqalarga, kolxozchilarga ham shunday nigoh bilan qarar, tabiiyki, ularni o'zidan yuz chandon yaxshi ko'rardi.* (Bandi burgut)

Ajratilgan hol. Ajratilgan hol o'zidan oldin kelgan holning ma'nosini izohlaydi. Oddiy gap bo'lagi, so'z birikmasi shaklida bo'ladi: *-Ha, bezovta bo'layotgan bo'lsa, birdan tinchib qoladi,...* *U ba'zan kechalari o'zini har tomonga uradi, jo'ra. Ayniqsa, tong otayotganda...* (Bandi burgut)

Ajratilgan ikkinchi darajali bo'laklarning so'rog'i va vazifasi, odatda, o'zlari aloqador bo'lgan gap bo'lagining so'rog'i va vazifasiga teng keladi. Odatda, gaplarda birdan ortiq sintaktik jihatdan teng bo'lak ketma-ket kelishi mumkin.

Xulosa: Gap tarkibida ega yakka holda qo'llanishi bilan bir qatorda, uyushib ham keladi. Bunday egalar grammatik tomondan bir-biri bilan teng bo'ladi. Uyushib kelgan egalarning biri ikkinchisini ergashtirmaydi, ulardan birini aniqlash uchun ikkinchisiga savol berish ham mumkin emas. Uyushib egalar grammatik jihatdan teng bo'lib, gapda gapning ikkinchi darajali bo'lagi – aniqlovchini ergashtiradi va kesimga bog'lanadi. Bunda aniqlovchi uyushib kelgan egalarning hammasiga ergashishi yoki ulardan biriga ergashib kelishi yoki ergashmasligi mumkin. Ammo uyushib kelgan egalarning barchasi kesimga bog'lanadi.

Gapda takror qo'llangan egalar uyushib kelgan ega hisoblanmaydi. Shuningdek, uyushib kelgan egalar bog'langan kesimlar ayrim hollarda tushib qoladi, grammatik tomondan ifodalanmasada, kesim gapning umumiy mazmunidan anglashiladi. Masalan:

Uzun bu imoratning orqa tomoni oq devor bilan o'ralgan saroy edi: sigir, qo'y, pichan... (Bandi burgut).

Ushbu parchada keltirilgan misolda kesim ifodalangan, lekin gapning umumiy mazmunidan kesimni anglash mumkin. Demak, yuqoridagi misollarni binar qurilmalarga kiritish olamiz.

O'zbek tilidagi singari fransuz tilida ham gap bo'laklarini mantiqiy ajratish usullari mavjud bo'lib u "Mise en relief" deb ataladi. Bu Grammatik hodisa bevosita fransuz tilining jozibadorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Fransuz tilida binar qurilmali gaplar va ajratilgan bo'lakning ifodalanishini ko'proq misollar bilan keying ishlarimizda yoritishni maqsad qildik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shakhnoza, T. (2022). Learning the Polysemy of the French Noun "Souris" and the Verb "Battre". *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 3(6), 75-79.
2. Shakhnoza, T. (2022). Expression of Averbial Sentence in Uzbek and French. *Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT*, 2(5), 133-138.
3. Туйбоева, Ш. (2022). Простая конструкция предложения в узбекской и французской системной лингвистике. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 8(8).
4. Абузалова М. Бобокалонов Р. Фразеологик бирликларнинг лексик маъно бутунлиги // ТАТ, 1999. № 3, 47-52 б.
5. Махмудов Н. Кесимнинг гапдаги маъноси. *Ўзбек тили ва адабиёти*, 2009. №1. -Б. 44-56